

...Shayx u go'zalning jamolini ko'rish umidida yor ko'chasidagi itlar orasiga qo'shildi...Mantiq ut-tayr

Hammasiga muharrirning injiqligi sabab bo'ldi. Aslida tashqi ovozlari-u shovirlarsiz ham radiopesa tuzukkina chiqqandi. Unga aktyorlar bilan oylab sayqal bergan, bastakor ataylab pesa uchun musiqa yozgan, men va yordamchim olti oy kecha-yu kunduz faqat shu asar ustida bosh qotirgan, tushimiz ham, hushimiz ham shu pyesa bo'lgan, mana endi mashaqqatdan qutuldik deganda, muharrirda birdan yangi fikr tug'ilib qolgandi. Aslida bu fikr yangi ham emasdi. Men pesaga ishlov berayotganda yoki montajda o'tirganda, agar tabiiy shovqinlarni ham qo'shsak, asar mukammal chiqadi deb o'ylagan, ammo ish ko'pligidan va yana vaqt ketishini bilganim uchun bu rejadan voz kechib qo'ya qolgandim. Endi esa birdan muharrir bizdan talab qilib qoldi.

- Asar juda yaxshi. Lekin biz tanlovda yutib chiqishimiz uchun bu yerga tabiiy shovqinlarni qo'shishimiz kerak. Qushlar sayrog'imi, daraxtlar shovqinimi, shamol, qo'y-qo'zilarimi...umuman, asarning sahnalariga qarab tabiiy sho'x-shodon ohanglar qo'shish kerak. Pesadagi quvnoq, xushnud ohanglarga uyg'unlashib ketishi, baxtiyorlik va xushanashinlik nafaqat qahramonlarga, balki butun tabiatga xos ekanini, tabiat ham biz bilan birga va u ham qahramonlarimizning iqbolidan quvonib, sho'x sadolar taratayotganini ko'rsatib berolsak, mukofot cho'ntakda deb hisoblayveringlar...

Bosh muharrir tanlovga oz muddat qolganini bildirish uchun og'iz juftladi-yu, ammo muharrirning "cho'ntagingizda deb hisoblayvering" degan aniq ishonchidan so'ng birdan bosh irg'adi.

- Albatta, qilish kerak. Shuncha mablag' sarflangandan so'ng yana biroz qiynalsalaring hech narsa qilmaydi. Xarajat oshsa, mukofotdan chiqarib olarsizlar. Ammo shoshilish kerak. Vaqt oz qolgan.

Norozilik bildirishga o'rin qolmadi. Shusiz ham bosh muharrir radiopesaga sarflangan mablag' oshib ketgani uchun bizdan norozi bo'lib turgandi. Uning bu mukofotni qo'lga kiritishimizni astoydil istayotganidan faqat biz emas, uning o'zi ham manfaatdor edi. U pesaga badiiy rahbar, tabiiyki, mukofotda uning ham ulushi bor edi.

Garchi yordamchim bilan men endi ishni tugatdik deb turganda yana boshog'riq boshlangani yoqmayotgan bo'lsa ham ertasigayoq ishga kirishdik. Biz oldin o'zimizdagi - radiofondagi shovqinlar jamg'armasini ko'rib chiqdik. Shunda bu shovqinlarning birontasi ham yaramasligiga, bittasi yozilaverib, xiralashgan bo'lsa, boshqasida qandaydir sun'iylik borligiga amin bo'ldik. Bularning birontasi biz kutgan xushanashinlikni tabiiy tarzda aks ettirmasdi. Demak, shovqinni tabiat qo'ynidan yozib olishga to'g'ri keladi. Buning uchun biz turli joylarni ko'z oldimizga keltirib ko'rdik. Masalan, shaharga tutash qishlog'u dalalar. Ammo bu qishloqlarning hammasida hozir dala ishlari qizg'in, traktorlarning shovqini tushib qoladi. Mikrofonlarimiz shunchalik sezuvchanki, agar boshqa tovushlar tushsa, keyin tozalab olish amrimahol. Bizga qushlar yo hashoratlarni, biri qo'yib, biri sayraydigan, ayni uyg'onish fasliga xos baxtiyor va ko'tarinki shovurlar kerak: u qushniki yo daraxt-o'simliknikimi, hashoratu-arinikimi, farqi yo'q, soadat saslarini o'zida mujassam etgan makon kerak edi. Shu sababli qushlar shovqinini shahar chetidagi eski xiyobonda yozadigan bo'ldik. Shaharda ularning ixtiyorisiz birorta gulning ham ko'karishga haqqi yo'q obodonchilik korxonasidagilar negadir uni tartibga solishni unutib qo'yishgandi. Shu sababli xiyobonda daraxtlar shunchalik zich va tarvaqaylab ketgan, ustiga ustak, shaharning barcha qushlari ancha yillardan beri arra tovushini eshitmagan daraxtlarga uya qurishgandi. Yordamchim telefon orqali obodonchilik ma'muriyati bilan oldindan kelishib qo'ydi. Ma'muriyat ertalab o'ngacha xiyobonga hech kimni kiritmaydi. Sahardan soat o'ngacha bir olam shovqinlarni, daraxtmi, qushlar chug'urimi yoki hayotdan minnatdor bo'lib, uni o'zgartirishga astoydil bel bog'lagan, o'z o'rni va baxtini topganlaridan ichlariga sig'may hammani baxtiyor qilgisi kelayotgan bizning pyesa qahramonlarimiz kabi sho'x-shodon esayotgan shamolmi, hashorat ovozi, yozib olishimiz mumkin. Bu taklif bizga ma'qul tushdi.

Ertasiga quyosh endi bosh ko'tarayotganda yordamchim va ovoz rejissyori bilan birga borib, mikrofonlarni xiyobonga o'rnatdik. Yaqin-atrofdagi katta mashina va temir yo'llari bo'lmagani uchun bu yer xuddi biz istagandek osuda edi. Daraxtlar sekin shovullab turar, bog'ni qushlar chug'uri qoplagan, go'yo parranda ahli odamlar bu yerga yig'ilmasdan burun bir yayrab qolmoqchidek, bor ovozlari bilan chug'urlashar, daraxtdan daraxtga uchib, o'ziga xos saodatmand sayroqilar xorini tashkil qilgandi. Ba'zi-ba'zida gullarga kelib qo'nayotgan arilarning yoki ninachilar va so'nalarning g'ung'illagan ovozlari bu shovqinni bir pas bosib ketgandek tuyular, lekin bu hashoratlar ovozi ham bizning pesamizga mos uyg'unlik va ko'tarinkilik bor, shu sababli hammasi tabiiy va go'zal edi. Men rejissyor sifatida hamisha ishlatilaverib, qolaversa, atayin texnik jilo berilgan, biroz sun'ylashgan "Shovqinlar jamg'armasi"dagi ovozlardan foydalanganim uchun bu yerdagi ovozlarning tabiiyligidan hayratlanib turardim. Shu paytgacha ortiqcha ish ko'payganidan norozi bo'lib yurgan yordamchimning yuzida ham tabassum paydo bo'ldi. U qushlar chug'uri-yu, hashoratlar navosi, o'simliklar shitirlashi, daraxtlarning mayin shovullashi uyg'unlashib ketgan, go'yo biz yaratgan pyesa bilan baxtiyorlik bobida bas boylashgandek taralayotgan tabiatning musiqiy "pesa"sini berilib eshitarkan, menga qarab qo'yar, ovoz rejissyorining esa yuzida mamnuniyat zuhurlangan, qushlar chug'uri, daraxtlar shovqinidan ilhom olgandek, berilib ishlar, har-har damda magnitafonga quloq tutib, ovoz qanday yozilayotganini eshitib ko'rar, ishidan qoniqib, bizga qarab qo'yardi. Osmonda oq bulutlar suzib yurar, lekin bu bulutlar ham ko'm-ko'k osmonga endi gard bo'lolmasligini bilib, sekin tog' taraf siljirdi. Bahor oxirlab qolgan bo'lsa ham hali maysalar yam-yashil, daraxtlar gullab, xiyobonni gulu-chamanga aylantirib yuborgandi. Yordamchim bekorga bu xiyobonni tanlamaganini endi sezib turardim. Bu yerda boshqa xiyobonlarda uchramaydigan mevali daraxtlar bilan birga hali taroshlanmagan, tartibga solinmagan, o'n yillardan beri o'z holicha shoxlab, gullab, emin-erkin tarvaqaylab ketgan daraxtlar ham bor edi. Ehtimol, aynan shuning uchun qushlar bu yerni makon tutgandir? Butun vujudimni quloqqa aylantirib ovozlarning qaysi biri ariniki, qaysi biri qaldirg'ochniki, qaysi biri oddiy chumchuqniki deya o'zimcha ajratib olishga tirishib, ko'zlarimni yumib yotardim. Qushlar chug'uri bilan birga yana qandaydir tushunqsiz sas ham elas-elas chalinardi. Lekin men bu sas nimaligini ajrata olmadim, u itning ham, bo'rining ham yoki biron yaqinidan ayrilgan jonivorning iztirobli nolasiga o'xshardi. Ehtimol, bu shaharning xiyobonga o'rmalab kirgan yer osti yo'llari shoviridir? Nima bo'lganda ham bu sas qushlar shovqiniga xalal berolmayotgan, qolaversa, bu mening qulog'imning shang'illashi bo'lishi ham mumkin edi.

- Bo'ldi, yetadi, - degan ovoz eshitildi yonimda.

Ko'zlarimni ochib, tepamda menga qarab turgan ovoz rejissyorini ko'rdim. U allaqachon asboblarni va magnitafonni yig'ishtirib bo'lgan, endi ketishga tayyor turardi.

- Yetadi. Bu yerda sizga zarur ovozlarni ikki marta qayta yozdim. Yana o'nta pesaga ishlatsangiz ham bu ovozlarni tugamaydi. Xuddi g'ayrihuuriy lazzatdan bemavrid bebahra qilgandek, unga soatimni ko'rsatib, norozilik bildirmoqchi bo'ldim. Ammo soat o'n besh daqiqasi kam o'nni ko'rsatib turardi. Yana o'n besh daqiqadan so'ng bu yerga quyoshdan qochgan bekorchilarning hammasi bostirib keladi. Ketishdan boshqa ilojimiz qolmaganini tushundim.

Biz xiyobon o'rtasiga kelganimizda darvozadan bir to'da quvnoq yoshlar kirib keldi. Ular xiyobonga kirishlari bilan turli tomonlarga tarqab ketishdi va birdan bog'da o'ziga xos shodonlik boshlandi. Radiokarnaylardan quvnoq va sho'x qo'shiqlar,

musiqa, sotuvchilarning chorlovlari, charxpalak, halinchaklarning g'iyqillashi bir pasda xiyobonni tutib ketdi. Go'yo xiyobonning biz boyagina his etgan va guvoh bo'lgan manzaralari, har bir o'tirg'ichigacha o'rmasib qolgan qushlarning saodatmand chug'urlari, daraxtlarning mahobatli va g'olibona shovullashlari, bizga nenidir anglatmoqchidek hashoratlarning xiyobon uzra shodon taralayotgan navolari radiokarnaylar shovqinlari oldida birdan g'oyib bo'lgandi. Bu narsa ta'bimizni biroz tirriq qilsa ham, nochora, biz ishimiz bitganidan xursand bo'lib, ishxonaga yo'l oldik.

- Siz bu shovqinlarni kelishgan sahnalarimizga qo'yib chiqing, - dedim men tramvayga chiqqach ovoz rejissyoriga. - Yordamchim yoningizda bo'ladi. Men boshliqlarni topib, ularni tushdan keyin eshitishga taklif qilaman. Ovoz rejissyori va yordamchim bosh iring'ashdi. Ular bu ishdan tezroq qutulib, bir-ikki kun ta'til olishni so'rashgani uchun ham men ularni shoshiltirayotgandim.

Tushdan keyin odatdagidek mening xonamga yig'ildik. Bosh muharrir oromkursiga yaxshilab joylashib oldi. Kengash a'zolari bo'lmish quloqlari og'irlasha boshlagan ikkita kekxa rejissyor esa magnitafonga yaqinroq o'tirishdi. Muharrir odatdagidek bosh muharrirning yonidan joy oldi. U o'zining taklifi bilan shuncha ishlar qilingani va hammasiga o'zi bosh-qosh bo'lib turganidan mamnun bo'lib, biroz gerdayib qo'yardi. Ovoz rejissyori xuddi ishni do'ndirib qo'ygandek, eshik ortidagi kursida choy ho'plab o'tirar, ro'molcha bilan yuzini yelpib, bizga "hozir men yaratgan mo'jizani ko'rasizlar" deyotganday pisanda bilan qarab turardi. Yordamchim biz ertalab bog'da yozib olgan shovqinlar bilan boyitilgan sahnalarni qo'yib bera boshladi. Oldiniga men hech narsa tushunmadim. Balki menga shunday eshitilayaptimi deb o'yladim va sekin ko'z ostim bilan bosh muharrirga qaradim. Yo'q. Quloqlarim aldamayotgan edi. Bosh muharrir ham negadir hech narsa tushunmay, muharrirga va menga savol nazari bilan qaray boshladi. Ikkita kekxa rejissyor esa quloqlariga qo'llarini qo'yib, og'izlarini lang ochib turishardi. Yordamchimning esa dami ichiga tushib ketgandi. U magnitafon tugmasini bosishni ham, bosmaslikni ham bilmay menga qarab, dovdirab turardi. Biz ko'tarinki kayfiyat aks etishi kerak bo'lgan va tabiatning shodon navolariga uyg'unlashgan sahnada qandaydir mungli, mustar va yurakni ezadigan bir dardli, ertalab xiyobonda qulog'imga elas-elas eshitilgan sas-uvillash eshitilardi. Men hech narsaga tushunmay yordamchimga qaradim.

- Bu nima?! - nihoyat bosh muharrirning qahrli ovozi yangradi. - Bizni masxara qilayapsilarmi?

Yordamchim ovoz rejissyoriga qaradi. Ovoz rejissyorining yuzi gezarib ketgandi. U iring'ib turib, yordamchimga jahl bilan tikilib, u qo'yib berayotgan tasmaning raqamiga yaqin borib qaradi. Keyin ajablangedek, cho'ntagidagi daftarchani olib, u yerdan nimanidir, aftidan, tasmaning raqamini izladi. Keyin topdi, shekilli, yana tasмага qaradi. Birpas hech narsaga tushunmagandek, bezrayib turib qoldi.

- Shu tasмага yozgandik, chog'i. Aniq shu tasma edi. Qiziq... - dedi u dovdirab.

- Bizning bekorchi vaqtimiz bormi, - zarda qildi muharrir. - Aniq shu tasmamidi?

- Ha, - dedi o'ziga ishonmay ovoz rejissyori. - Shu edi... Yana kim biladi.. Balki adashib...

U bizga uzrxohlik bilan qaradi-da, shoshib xonadan chiqib ketdi. Uning dahlizda yugurib ketayotganini hammamiz eshitib turardik.

- Bularning xayoli joyida emas, - dedi bosh muharrir norozi bo'lib. - Mana shundan ham ishga bo'lgan munosabatni bilsa bo'ladi.

Tasmaning raqamini ham adashtiradimi esi joyida odam?

Hamisha o'zim bilan ishlaydigan guruhning yonini olganim uchun u menga iddao qilib gapirardi. Bu marta unga qarshi hech narsa demadim: u haq edi. Eng muhim paytda yordamchim bilan ovoz rejissyori meni uyaltirib qo'ygandi. Saldan keyin bir quchoq tasma ko'targan ovoz rejissyori kirib keldi.

- Mana, bugungi ovoz yozgan va montaj qilgan tasmalarim. Balkim charchab, raqamni adashtirgandirmiz...

Shunday deb u birin-ketin tasmalarni qo'yib ko'ra boshladi. Ammo u qo'rgan birona ham tasmanda biz kutgan shovqinlar yo'q edi. Ovoz rejissyori bundan battar ajablanar va dovdirardi.

- Menga qarang, - dedi oxiri muharrir. - Sizlar ertalab yozib kelgan tasmani qo'yib bering. Bizning o'zimiz qaysi shovqinlarni qo'yishni aytamiz. Qaytadan qo'yib chiqasizlar. Bu ketishda bizga butun jamg'armadagi tasmani qo'yib berasiz, chog'i.

Bu gap menga ham ma'qul bo'ldi. Mulzam bo'lib o'tirgandan ko'ra ertalab yozib olgan shovqinlarni qo'yib, qaysi shovqinni qaysi sahnaga qo'yishni kelishish osonroq edi. Ovoz rejissyori ma'qul degandek, bir tasmaning ustiga qaradi-da, o'sha tasmani magnitafonga qo'ydi. Endi bunisi ustimizdan bir chelak suv quyib yuborganday ta'sir qildi. Tasmadan biz boyagina pyesa sahnalarida eshitgan nola to'la uvillash aniq-tiniq kelib turardi. Ovoz rejissyori behol o'tirib qoldi. Uning yuzlari oqarib, rangida rang qolmagandi.

- Axir ertalab shu tasмага yozgandik, bu shovqin qaerdan paydo bo'ldi?

- Balki oxirrog'iga yozgandirmiz. Aylantirib ko'ringchi, - dedi yordamchim umid bilan.

Ovoz rejissyori tasmani oldin boshiga, keyin oxiriga qarab aylantirdi. Ammo butun tasмага o'sha nola yozilgan, xuddi ustimizdan kulgandek, qaerida to'xtatib, tugmachani bossa, o'sha yerdan eshilib-buralib, g'ayritabiyy nola chiqib kelardi. Bu shunchaki nola emasdi. Qandaydir tabiatdagi jami g'amgin va muztar tovushlar, sayrashlar va shovullashlar uyg'unlashgan o'ta g'amgin, dilni o'rtaydigan, odamni g'amgin va dilgir qilib qo'yadigan, bizning pyesamizga mutlaqo zid anduh to'la nola - egasidan ayrilgan itnning uvillashiday nola edi.

- Bu nima?! - endi o'rnidan turib tutoqib ketdi bosh muharrir. - Sizlar bizni mayna qilishga chaqirdilaringmi?

U ko'proq menga ko'zlarini lo'q qilib, vajohat bilan qarab turardi. Men yelkamni qisdim.

- Bugun ertalab biz eng zarur shovqinlarni yozib kelgandik. Bilmadim, nima bo'layapti?

Shunday deb, ovoz rejissyoriga va yordamchimga qaradim. Ular shoshib qolishgan, bir tasmani olib, ikkinchisini magnitafonga tiqishar, eshitib, kutilgan ovoz kelmagach, yana boshqasini tiqishardi. Nihoyat ovoz rejissyori charchadi. U bizga qaramay kursiga o'tirib, nimanidir eslamogchidek o'yg'a toldi.

- Sizdan so'rayapman, nima bo'ldi? Yana tasmani o'chirib yuboribsizlarmi? - bosh muharrir studiyada tez-tez bo'lib turadigan vaziyat bo'lgan, bular tasmani bilmasdan o'chirib yuborgan deb o'ylayotgan edi.

Ovoz rejissyori unga jahl aralash lablari titrab bilan qaradi. U endi boshliqdan hayiqmayotgan, to'g'rirog'i, unga nimadir juda qattiq ta'sir qilganidan o'ziga kelolmayotgan, endi yo'qotadigan narsasi yo'q odam kabi ters va qo'pol bo'lib qolgandi.

- Yo'q. Biz adashib, o'chirib yubormadik. Agar o'chirsak, yozib kelgan ikkala tasma turardi. Bog'dan yozib olingan tasмага ham shu shovqin yozilib turibdi.

- Tushunmadim, - dedim men endi battar ajablanib. - Yarim soat oldin, bo'ldi, shovqinlarni sahnalarga qo'ydik, endi eshitsak bo'ladi degan siz emasmi?

Ovoz rejissyori ko'zlarini yumib-qayta ochdi.

- Ha, shunday degandik. Lekin ko'rayapsiz-ku...

- Ertalabki tasma-chi?

- Ertalab har ehtimolga qarshi ikkitadan tasmaga nusxasi bilan yozib olganman. Ammo ikkalasi ham o'sha uvillash bilan to'lib turibdi. Axir bu uvillash ham, yaqin atrofimizda it ham yo'q edi... Shunga hayron qolayapman. Boya sahnalarga qo'yayotganimizda ham hammasi o'z joyida edi. Buni kim qilishi mumkin, bilolmayapman.

Bosh muharrir gapimizdan hech narsani tushunmagan bo'lsa ham ammo murosa qilgandek, ufladi.

- Mabodo ertalabdan halqumni ho'llab olmaganmidilaring? Balki bu shovqinni kayf aralash yozib kelgandirsizlar?

Unga "tuhmat qilmang!" degandek zarda bilan qaradim. U mening ichkilikka o'ch emasligimni, ayniqsa, ertalabdan ichib olmasligimni bilardi. Shuning uchun mendan ko'zini olib qochib, ovoz rejissyoriga tahdid qildi.

- Yetar. Tasmalarni topsangiz, toping, bo'lmasa, ertaga qaytadan yozib keling. Bu marta yoningizga boshqa ovoz rejissyorini ham olvoling. Ehtiyot shart. Shusiz ham ishini cho'zib yubordilaring...

Shu gapni aytib, norozi va asabiy qiyofada chiqib ketdi. Uning izidan muharrir va ikkita keksa rejissyor ham chiqib ketdi. Biz endi tasmalarni olib, shoshilmay birma-bir eshita boshladik. Ammo yozib kelgan shovqinlardan asar ham yo'q edi. Ertalab shu ish uchun atayin raqamlagan tasmalarda ham o'sha mungli, mustar nola-sohibini yo'qotgan it uvillashi eshutilib turardi. Kim biz bilan hazillashgan bo'lsa ham qo'pol hazillashgan edi.

- Balkim biz tushlikka chiqqanda kimdir o'chakishib, ustiga yozib yuborgandir? - dedi yordamchim.

- Ko'rolmaydiganlar qancha?

Ovoz rejissyori boshini irg'adi.

- Yo'q. Bo'lishi mumkin emas. Men bu tasmalarni o'zimga solib, tushlikka chiqqandim. Birov qilishi mumkin emas.

- Nima, seyfingizning kaliti boshqada yo'q deyapsizmi? Odamlarning seyfi ochilmasdan puli yo'qolayapti-yu...

Men ularning bahsiga qo'shilmadim. Ertaga ertalab yana boqqa borishimizni, qayta ovoz yozib olishimizni va o'zlari bilan yana bitta ovoz rejissyori va qo'shimcha magnitafon olib olishini tayinlab, uyga jo'nadim. Tramvayda ketarkanman biz eshitgan mung qulog'im ostida jaranglaganday bo'ldi. Qiziq, men shuncha yil radioda ishlab, ovozlar va musiqa jamg'armasini besh qo'lday bila turib, bunday uvillashni hech eshitmagan edim. Bu kimning hazili yoki o'chakishishi oqibati ekan? Xayolimdan mukofotga nomzod bo'lgan boshqa studiyadagi hamkasblarim birma-bir keldi. Ammo ularning bu darajada pastkashlik qilishlariga ishongim kelmasdi.

Ertasiga biz yana o'sha xiyobonda ovoz yozib o'tirardik. Bu safar ovoz rejissyori ikkita, yozish uskunalarimiz esa uchta edi. Ovoz rejissyori o'zi bilan ikkinchi magnitafonni ham olib kelgandi. Biz yana o'sha tonggi nabotot, hashorat va parranda ovozlari - tabiatning ulug'vorligini madh etayotgan, borliq bilan uyg'unlashib ketgan tiriklik va yaratuvchilik ohanglarini yozib ola boshladik. Men ko'zlarimni yumib yotarkanman, birdan qushlar va hashoratlarning quvnoq ovozlari ostida kechagi tasmadagi uvillash kelayotgandek bo'ldi. Cho'chib, boshqalarga qaradim. Ular indamay ishini davom ettirishardi. Demak, kecha asabiylashganim uchun qulog'imga eshitalayapti deb o'yladim. Ammo bu sas endi menga aniq eshitalayotgan edi. Qushlar chug'uri ostida u birdan quloqqa chalinmas, ammo butun vujudingizni shu shovqinlarga bersangiz, unda ana shu shodonliklar ostida mahzun uvillash kelib turar, u bir yo'qolib, bir paydo bo'lar, go'yo baxtiyorlik va shodonlik bilan bahs boylashib, yutqizayotgandek edi. Men har ehtimolga qarshi chakalakzorga qaradim: u yerda bironta it yo'qmikin? Shuncha mehnatimiz yana zoe ketsa degan fikrdan ko'z oldim bijirlab ketdi-nazarimda, chakalakzor ichida qandaydir katta bir it menga qarab, masxara qilib, tilini chiqarib turgandek tuyuldi. Ko'zimni yumib ochdim - itga o'xshab hurpayib turgan shoxga ko'zim tushdi-da, kulgim keldi. Lekin men it uvillashini aniq eshitdim. Bu itning uvillashi ekani kunday ayon-ku. U qanaqa it ekan, bunchalik bag'ri xun bo'lgan?! Ovoz rejissyorlari shovqinlarning tiniq va aniq yozib olinayotganiga guvoh bo'lish uchun quloqlarini uskunalariga tegizib turishar, keyin mamnun bosh irg'ashardi. Demak, hech qanday g'ayritabiiy narsaning o'zi yo'q. Mening qulog'imga shunday eshitalayapti, buning hammasi kechagi mojaroning ta'siri. Biz endi bu marta ishimiz yurishishga zarracha shubha qilmasdik. Shuning uchun men sahnalarga qo'yilgan shovqinlarni ertaga eshitamiz deb, xiyobondan chiqishda xayrlashib, uyga ketdim.

Kechqurun yordamchim telefon qildi. U judayam hayajonda edi.

- Aytсам, ishonmaysiz. Barcha tasmalar yana o'sha uvillashni yozib olibdi. - U, aftidan, yig'lamoqdan beri holatda, u telefon qilayotgan xonada ovoz rejissyorlari bo'lsa kerak, asabiy ovozlari kelardi. - Kelmasangiz bo'lmaydi.

Men tezda kiyinib jo'nadim. Ovoz yozish studiyasida endi boshqa rejissyorlar ham yig'ilgan, muharrir ham shu yerda edi.

- Sira aqlim yetmayapti. Bu qaerdan keldi? Axir biz boshqa shovqinni yozib olgandik? - Ovoz rejissyori asabiy gapirardi.

- Balki boshqa kanalga yozgandirsizlar? - kimdir, menimcha, muhandislardan biri so'radi.

- Hamma kanalni tekshirdik. Shu uvillashdan boshqa ovoz yo'q.

Rostdanam tasmalardan yana o'sha-mungli va mahzun nola - eng qizig'i, xiyobonda menga shunday tuyulayapti degan uvillash kelardi. Men endi tong qotdim. Va gap tasmada ham, yozish uskunasi ham emasligini sezib turardim. Xiyobonda mening ko'zimga ko'ringan it aslida bo'lgan va u o'sha daraxtlar orasida turib uvillayapti, biz garchi qancha urinmaylik, faqat uning ovozi yozib olyapmiz. Bu yerda qanday sir bor? U qanday it bo'ldi? Uning uvillashida bizni nimadandir ogoh qilmoqchi bo'layotgandek, sirli nola bor edi. Uskunalarimiz garchi qushlar ovozi yozayotgandek tuyulsa-da, aslida quloqqa elas-elas chalinadigan o'sha sirli uvillashni yozib olyapti. Nega? U qanday nola bo'ldiki, o'ziga zamonaviy uskunalarini ham bo'ysundirib, bizni mastu-muztar qilgan saodatmand ohanglar o'rniga asriy g'am-anduh aks etgan itning uvillashini taqdim etayapti? U qanday it? U qanday uvillash, nola? Muharrirning fig'oni falakka chiqdi. U bir paytlardagi kelishmovchiligimizni esladi, chog'i, meni ataylab shunday qilyapti deb o'yladi. Menga baqrayib tikilgancho'rsatkich barmog'ini bigiz qilib ko'rsatdi:

- Siz... siz bu ishingiz bilan javob berasiz. Bu bilan nima demoqchisiz? Bu masxarabozlikning tagida nima yotibdi o'zi?! Hali tinglovchiga it uvillashini qo'yib berasizmi? It nega uvillayapti? A?

- Men ham shuni bilmoqchiman, - dedim favqulodda o'zimni bosiq tutib. - Bu o'zi nima? Tabiat bu uvillash orqali bizga nima demoqchi? Mening ham aqlim yetmayapti. Lekin bu judayam g'aroyib nola. Buni ataylab yaratib bo'lmaydi. Bu tayyor kuyning o'zi.

Muharrir menga nimadir demoqchi bo'lib, yana ko'rsatkich barmog'ini bigiz qildi. Uning musiqadan umuman savodi yo'qligini eslab, gaplarim behuda ketganini sezdim. U aksar hollarda eshittirish matnini berib, keyin rejissyorlarga "o'qilgach, bir ting'in-ting'ir qo'yib yuboringlar" derdi. Rejissyorlar "Aslida eshittirishda ana shu ting'ir-ting'irdan boshqa narsa ham yo'q, tinglovchi faqat o'sha ting'ir-ting'irni eshitadi", deb izidan mayna qilishardi. U rejissyorlarning o'ziga munosabatini bilar, lekin ular bilan gap

talashib, obro'sini ketkizmasdi. Hozir ham hushyor aqli birdan ishlab ketdi. Zahrini ichiga yutdi.

- Besh daqiqadan keyin bosh muharrirning oldida uchrashamiz.

U eshikni zarb bilan yopib chiqib ketdi. Men ovoz rejissyoriga qaradim. U yelka qisdi. Biz yana bir marta yozib kelgan tasmlarni eshitib ko'rdik. Barcha tasmlarni o'sha uvillash bosib ketgandi. Yordamchimga bu ohanglarni audio tasмага ko'chirib, o'zimga berishini tayinlab, bosh muharrirning oldiga yo'l oldim.

Ertasiga bizni asarga bezak berishdan chetlatishdi. Itning uvillashini yozib kelganimiz uchun boshimizga it kunini solishmoqchi edi, ammo tanlov yaqin qolgani sababli istisno qilishdi: boshqa guruh pesaga shovqinlar ishlovini beradigan bo'ldi. Bizga ham aynan shu kerak edi. Endi g'irt bekorchi edim. Yordamchim yozib bergan tasmdagi itning uvillashini yana bir necha kun eshitib yurdim. Eshitganim sayin bu it nega uvillayapti, u kimni chorlayapti, kimga nola qilayapti degan o'y butun fikru xayolimni egallab oldi. Endi faqat nola qilayotgan it haqida o'ylar va erta-yu-kech qulog'im tagida faqat o'sha itning fig'oni jaranglardi. U qanday it? Egasi bormikin? Nega u bunchalik nola chekayapti? Bir necha kunlik savollarimga xuddi tashlandiq bog' javob beradigandek, o'sha itga o'xshab hurpayib olgan shoxlar orasida meni javob kutib turgandek, xiyobonga yo'l oldim. Quyosh endi shaharning toqqa tutash qismidan bosh ko'tarib kelardi. Bog' qushlar va parrandalar, umuman, tiriklikning go'zal qo'shig'iga to'lgandi. Men yana o'sha ovoz yozgan joyga borib o'tirdim. Maysa hidi kelardi bog'dan. Shudring hovurida dimoqqa urilib, keyin qushlar chug'uriga qo'shilib ketardi. Bu yerda hamma narsa baxtiyorlik, yashnash va uyg'onishdan darak berardi. G'ayritabiiy narsaning o'zi, ayniqsa, bu atrofda itdan darak yo'q edi. Unda uvillash qaerdan kelayapti? Qanday qilib tasmlarga joylashib oldi? Men daraxtlar orasini, orqadagi, dala bilan tutash, shabbalab ketganidan chakalakzorga aylangan dafnazor va tutzorni birma-birma ko'zdan kechirdim. Bog'da shoxlar orasini titib yurganimni ko'rgan tanishlarim esdan og'ibdi deb o'ylashlari mumkin edi. Qaerdaki xilvat va it bekini olishi, qaerdaki yotishi, pusishi yoki uya qilishi mumkin bo'lsa, hamma joyni izlab chiqdim. Hech qanaqa it yo'q edi. Unda uvillash qaerdan kelayapti? Holdan toyib, sinib yotgan daraxtga o'tirdim. Xuddi telbalarday xiyobonni axtarganim o'zimga nash'a qilardi. Shu bilan birga men o'sha sirli uvillashning tagiga yetishni istardim. Tin olmoqchiday ko'zlarimni yumdim. Atrofimni qurshagan xushanishin chug'urildan kuch olish uchun birpas ularning sehriga berildim, keyin har qanday tovushlardan o'zinni uzib, yana o'sha uvillashni eshitish uchun elas-elas kelayotgan shovurlarga quloq soldim. Shu holatda uzoq o'tirdim. Xayolim orqali bog'ning men hali yetib bormagan ichkarisiga kirib ketdim. U yerlarda anvoyi gullar gurkirar, hamma narsa o'z holicha va o'z erkicha o'sib yotardi. Daraxtlar chirkinlikni inkor etib, yangi barglar chiqarar, keyin to'kilgan gullar o'rniga yangi g'unchalar ochilar, minglab ranglar boqqa zeb berish uchun shaylanib turardi. Bu yerda go'zallik bilan xunuklik, zavol bilan yasharish, tubanlik bilan yuksaklik o'rtasida kurash ketardi. Bir mahal ko'zim ilindimi, yo menga shunday tuyuldimi, birdan tasmlarda eshitgan nola oldin sekin, keyin baralla eshitila boshladi. Saldan keyin men uvillashni aniq eshitdim. Uvillash bir olisdan, bir yonimdan eshitar, ko'zimni ochib qaragim, uvillayotgan itni ko'zim bilan ko'rgim kelar, ammo birdan it ham, nola ham yo'qolib qolsa-chi degan xavotirda ko'zlarimni ochgim kelmasdi. Uvillashda munis anduh bor edi. Undan dard, musibat, iztirob, g'am-uqubat taralardi. Bu dardga va bu g'amga chidab bo'lmasdi. Uni eshitgan sayin shunchalik dard ko'payar, musibat ulug'lashar, g'am yurakni to'ldirar, yig'lagim kelardi, ammo uvillashdan taralayotgan xo'rlik oldida yig'i nima bo'libdi deb o'zinni ovutardim. Odam qanday chidaydi bu nolaga deb o'kirib yuborging kelardi. U o'zining anduhi bilan sehrlar, anduhi bilan maftun qilar, musibati bilan jodulab qo'yardi. Bu uvillashni eshitgan odam boshqa ohangni qayta eshita olarmikin? Bu nola, bu mahzunlik boshqa barcha ohanglarni fosh qilib, soxtalashtirib qo'yardi. Nega men shu paytgacha bu anduhni eshitmaganman, nega shu paytgacha bu musibatdan uzoq bo'lganman? Nega bu nola o'zlarini xushanishin ohanglar tagiga yashirdi ekan? Nega uvillayotgan it odamlardan o'zini pinhon tutyapti ekan? Uvillashdagi anduh ta'sirida ko'zlarimdan yum-yum yosh oqayotganini bilardim. Yig'lagan sayin yengil tortar, yanayam o'kirib yig'lagim kelardi. Yig'iga g'arq qiluvchi bu nola qaydan kelayapti, qayga ketayapti? Nega u meni mungga va musibatga oshno etayapti?

Ertasiga ham, keyingi kunlar ham men bog'ning bir chetida o'tirib, ko'zlarimni yumgancha kunimni shu holatda, musibat va anduhdan titrab o'tkazdim. Men uvillayotgan itni ko'rgim, uning g'amiga sherik bo'lgim, musibat ezgan boshini silagim kelardi. Endi bir umr bu noladan ham, itdan ham ayrilolmaydiganday edim. Ko'zlarimni ochganimda uvillash yo'qolar, yumib olishim bilan qulog'im tagida paydo bo'lar, meni o'z ohangiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo'rlik va haqorat to'la edi. Mahkumlik va mutelik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo'rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi. Men ko'zlarimni ochib, "Qaerda, nega meni bunchalik ezasan, kel, seni ko'ray, maqsading nima?!" deb pichirlardim. Pichirlashim qulog'im tagida xuddi hayqiriqday sado berardi. O'shanday lahzalarda men bir narsani bilib qoldim: ko'zimni yumishim bilan mening ichimdan nimadir tashqariga sakrab chiqib ketar, menga o'sha sakrab chiqib ketgan narsa itday bo'lib tuyular, ammo mening ichimda it nima qiladi deya bu shubhani inkor qilardim. Asta-sekin boqqa kelishim bilan ichimdan sakrab chiqib ketgan sharpaning itga o'xshashligiga ishona boshladim. Ichimdan chiqib ketarkan, ko'kragim it panjalari bilan tirnalgandek og'riqni his qilardim. Bir kuni ko'zimni yumgancha, itning nolasi boshlanishini kutib turarkanman, uvillash shunday yonginamdan kelayotganday tuyuldi. Beixtiyor, o'zim kutmagan shiddat bilan ko'zimni ochdim. Sezgilirim aldamagan edi. Yonimda qopqora it turardi. Uning jussasi men o'ylagandan ko'ra katta edi. Ammo ko'rinishining o'zidanobu bu itni g'am ado qilgan degan fikr kelardi. Uning ko'zlarida mung va hasrat qotib qolgan, o'zi aftoda, ozg'in, qovurg'alari ko'rinib yotar, oyoqda zo'rg'a turganday tuyulgandi menga. Go'yo bir necha kun emas, bir oydan beri tuz totmaganga o'xshardi. O'rnimdan qimirlashga qo'rqib, uni kuzatib turardim. It har doimgiday boqqa odamlar kirib kelguncha, shovqin boshlanguncha uvilladi, keyin sekin chakalakzor orasiga kirib ketdi. Men uning izidan yugurdim. U chakalakzordan chiqib, devorning tirqishidan o'tdi-da, shaharga qarab ketdi. Devor oshib tushganimda, u allaqachon odamlar ichiga kirib, g'oyib bo'lgandi. Men yengil tortdim. Tirikchilik shovqini-yu hamisha dumni likillatishga va ketni qimillatishga undaydigan kuy hamda shunga mos olomon bilan to'layotgan bog'da itni ko'rganimdan va uni topganimdan xursand edim. Ertasiga it mendan o'zini olib qochmadi. U endi meni har kuni shu yerda ko'rib ko'nikib qolgandek edi. Yonimga kelib, orqa oyoqlariga o'tirardi-da, osmon-u falakka qaragancha yana o'sha nolasini boshlardi. U nega aynan shu yerga kelib uvillayapti, sira aqlim yetmasdi. Ammo u har doim bir paytda bir joyga kelib uvlardi. Itning menga qarab turishining o'zidayoq mung va hasrat bor edi. Ehtimol, u o'zining qanchalar aftoda ekanini bilmas ham? Ehtimol, ana shu g'aribli bilan boqqa kelib, erta-yu kech o'yindan boshqasini bilmaydigan takasaltanglar-u oliftalarga nimadir ishora qilmoqchidir? Bilmadim, ammo bir qarashdayoq uning naqadar ojiz va mushfiq ekanini bilib olsa bo'lardi. U o'ziga hech chetdan qarab ko'rganmikin? o'zini bir marta bo'lsin kuzatganmikin? Buncha g'arib va faqir bo'lmasa vujud degani? Unga qarab bu aftoda tanani ezg'ilaging, ezg'ilagan sayin tahqirlaging, tahqirlagan sayin uning oyoqlari ostida o'zing tahqirlang kelardi. Uning qo'tir bosgan vujudida qandaydir sehrli bir kuch borday edi. Biz tezda bir-birimizga o'rganib qoldik. Endi men ham it bilan birga devor tuynugidan emaklab, ko'chaga chiqar, keyin uning izidan sanqib yurardim. Birgalikda shaharning shuncha yillardan beri biron marta ko'rmagan g'aribgina kulbalar, to'kilay deb turgan masjid madrasalar

joylashgan eski tor ko'chalarini, qadimiy qal'alaru qasrlar xarobalari qolgan tepaliklarni aylanib chiqardik. Ancha kundan keyin men itning har kuni bir xil yo'nalish bo'yab bir xil ko'chalarni aylanishini, faqat shahar chetida qolgan tor ko'chalarning biridagi o'yma naqshlarini yillar yomg'iri sidirib yuborayozgan ikkita darvoza tagiga chiqarib qo'yilgan yegulikdan yeyishini, yana o'sha yo'l bilan iziga - boqqa qaytib kirishini o'rganib chiqdim. It shaharning gullab-yashnab yotgan qismiga deyarli burilmas, boshqa biron joydan yegulik axtarib umidvor ham bo'lmas, yo'lidagi daydi mushuklar va sang'i laychalar o'ralashib yurgan oshxona-yu bazmxonalar oldidan indamay, boshini egib o'tib ketardi. Suyak talashayotgan laychalarga bir ko'z tashlardi-da, yo'lidan davom etardi. Agar o'sha eski darvoza oldida yegulik bo'lmasa, indamay iziga qaytar, kun bo'yi och yursa ham, o'zini xo'rak talashib irillashayotgan laychalar ichiga urmasdi. Shuning uchun unga yegulik olib kela boshladim. U men kutganday yegulik deb dumini likillatib, suykalmas, ming bir mulozamat bilan bergan pishloq yoki bo'tqani oldin rosa hidlab, keyin bir bo'lak yer, qolganiga e'tibor ham bermasdi. Menga u kasalday tuyuldi. Ehtimol, shuning uchun u mana shu ovloqqa maskan qurgandir, ehtimol tanasidagi og'riqni yengish uchun nola qilar?! Axir sog'it xo'rakdan o'zini tiyolmaydi-ku. Shunday bo'lsa-da, uni o'zimga o'rgatish uchun yegulik olib kelar, uvillash marosimi tugagach, biz birgalikda shahar aylanardik. U mening tasavvurimdagi itga o'xshamasdi b" kamsuqum, g'arib, va ustiga ustak o'ta qo'rqqoq edi. Xudi fil oldini to'sgan qoplonlardek, daydi laychalar oldini hurib to'ssa, ular bilan talashib o'tirmasdi - ular nimani talab qilsa, o'sha yoqqa indamay burilib, beparvo ketaverardi. Uning biron marta tishini ko'rsatib, irillaganini, fe'lini ko'rsatib, birovga yot qarash qilganini ko'rmadim. Undagi kamsuqumlik va ozurdalik menga ham asta-sekin yuqa boshladi. Bir kuni uni uyimga olib ketdim. U men bilan ketishni istamadi. Ammo unga qarab, o'zimning bor muhabbatimni izhor qilib, nimalardir dedim. Aslida ham itga mehrim tushib qolgandi. Uni endi o'zimdan ayro tasavvur qilolmasdim. Sal ko'rmasam sog'inari va unga maftun bo'lib qolgandim. U his-hayajonga to'lgan gapimni tushunganday bir pas mulohaza qilib, ko'zlarimga tikilib turdi, keyin izimdan indamay ergashdi. O'sha kecha biz, to'g'rrirog'i men unga o'zim haqimda hikoya qilib berdim. Xayolchan bolaligim, iztirobda o'tgan o'smirlik, balog'atning aldov va xiyonatlari, tirikchilikning mazaxomuz qulligi, do'stlikning juda oson sotilgani, hayotning ayovsiz sinovlari va tabiiyki, erishilmagan muhabbat ham bu hikoyadan chetda qolmadi. U mening gapimni oyoqlari ustiga tumshug'ini qo'yib eshitib yotardi. Ko'p marta do'stlar bilan bo'lgandek va keyin nega shularga dardimni yozdim deb o'zimdan nafratlanib yurgan paytimdagidek, hikoya davomida u uxlab qolmadi. Aksincha, aqalli biron marta ham mendan ko'zini uzmadim, yummadim ham. Unga gaplarim va o'tmishim ta'sir qildi. Orada bir-ikki menga hamdarddek hurib qo'ydi. So'qqaboshligim ikkalamizga ham qo'l keldi. It menikida qoldi. Biz endi xuddi tug'ishganday yoki oshiq-ma'shuqday bir-birimizsiz turolmaydigan holatga yetgandik. Ikkalamiz jimgina shahar ko'chalarini kezardik. Ikkalamiz ham tilsiz, zabonsiz bir-birimizni tushunardik. Ishdan chiqib, kechgacha ko'chalarni aylanar, yuzlari o'zini fosh qilib qo'yayotgan baxtiyorlikdan siniqqan va tashvishlardan gezargan izdihom ichida bir-birimizdan ko'zimizni uzmay, odamlarning bizga ajablanib qarashlariga parvo ham qilmay, yonma-yon ketganicha tilsiz-tovushsiz so'zlashib ketardik. Bir kuni men boshqa tomonimga ag'darilib yotish uchun o'girilarkanman, to'shagimning yarmida yotgan junli tanaga qo'lim tegdi. Cho'chib uyg'onib ketdim. Qaddimni ko'tarib qaraganimda yonimda, yostig'imning yarmiga tumshug'ini qo'yganicha uxlab yotgan itni ko'rdim. Shundagina it endi menga to'la ishonganinini va it haqida nimani o'ylasam, it ham men haqimda shuni o'ylashini sezdim. Beixtiyor qo'llarim bilan uning junlarini siladim. Kaftlarim endi dag'allashib quriy boshlagan, sababi menga noma'ulum bo'lgan it kunlaridan darak berib turgan yaralarga tegdi. Etim jimirlashdi. Nazarimda bu yaralar o'zimning tanamda va o'z tanamni silayotganday tuyuldi. Bu tuyg'u keyinchalik ham tark etmadi. Har kecha uning yaralarini silarkanman, xuddi o'z badanimni silayotganday bo'lar, kimdir hayotning adolatsiz so'qmoqlarida orttirgan jarohatlarimni silab menga orom berayotganday edi. Bu itga ham xush keldi, chog'i, u men bilan bir to'shakda yotishga o'rgandi. Unga har kecha itga oshno bo'lmagan va it bo'lmagan paytlarimning azob-uqubatlari, chekkan anduhlarim, hasratlarim haqida hikoya qilib berardim. U eng og'riqli kechinmalarimni gapirayotganimda g'ingshib qo'yar, xotiram bilan birga uning ham joni azoblanayotganini sezib qolar, ko'zlaridan oqayotgan yoshlar yostig'imni ho'l qilar, ba'zan esa men u bilan bog'ga borib, unga qo'shilib uvillar va uvlagan sayin vujudimdan og'riq va uqubatlar arib, ruhim yanayam yengillashib borayotganini sezar va beixtiyor ko'nglimda nega men bu lazzatdan shuncha yillar bebahra yurdim ekan degan nadomat paydo bo'lardi. Men shu uvlash orqali o'zimni va atrofimni kashf qilayotganday edim. It ko'pincha meni ishgacha kuzatib borar, keyin qayoqqadir, menimcha, o'sha ovloq boqqa ketar, ishdan chiqar paytim ko'cha yuzida kutib turardi. Tanishlarim mening it asrayotganimni ko'rib ajablanishardi. Atigi bir necha oy oldin itni ko'rsa ijirg'anadigan menday kelajagi porloq, harqalay, bir siltov kam taniqli bo'lib qolgan yigitning qandaydir ko'rinishiyoq odamda yoqimsiz his va irganish uyg'otadigan kasalmand va qo'tir it bilan yashashini tasavvur qilisholmasdi. Buni menga oshkora aytganlar ham bo'ldi. Ammo mening parvoyimga ham kelmadi. Men ularga siz agar uning uvillashini bir eshitsangiz edi, degim kelar, lekin bu gapimdan uyalandim. Axir itning uvillashi ham odamni sehrlab qo'yishi yoki odam it nolasiga ham oshufta bo'lishi mumkinmi? Bu ular uchun g'irt bema'nilik bo'lib tuyulardi. Shuning uchun ularga javoban indamay qo'yaqolardim. Menga ularning kulishidan ko'ra mana shu kasalmand itning mehrini qozonish afzalday tuyulardi.

- Bir kuni tushlikdan qaytishda dahlizda mening xonam oldida yig'ilib turgan hamkasblarimni ko'rdim - u yerda xuddi to'polon bo'layotgandek edi. Qadamimni tezlatdim. Meni ko'rib yordamchim qarshimga yugurdi. Uning ranglari oqarib ketgan, anchadan beri meni izlab yurgan ekan.
- Sizni bosh muharrir xonangizda kutayapti - , dedi xavotir va hamdardlik bilan.
  - Nima gap? Mukofotni bo'lishayaptimi, - dedim xonam oldida butun boshli jamoa yig'ilib olganiga ishora qilib.
  - Yo'q. Kimdir sizning xonangizda it yotganini ko'ribdi, - dedi. - Boshqalar ham itni ko'rgan ekan. Hammasi guvohlik berishga yig'ilishgan.
- Uning gapi mening kulgimni qistatdi. Hamkasblarim aqldan ozganga o'xshaydi deb o'yladim. Xonamga shoshib kirarkanman, u yerda bosh muharrirdan tashqari muharrir, yana xo'jalik bo'limidan ham ikki kishi borligini ko'rdim. Ular nimanidir shivirlashib gaplashishardi. Bosh muharrir qo'lidagi ro'molcha bilan burnini ushlab turardi. Meni ko'rishlari bilan jim bo'lishdi. Nima gap deganday bosh muharrirga va muharrirga qaradim.
- Siz ishxonaga it olib kelish mumkin emasligini bilasizmi, - dedi bosh muharrir o'smoqchilab, xuddi meni ayb ustida qo'lga tushirganday.
  - Bilaman, - dedim. - Bu yerga it olib kelganim yo'q.
  - Bekor gap, - dedi xo'jalik bo'limidagi kalta kishi. - Farroshlar bir oydan beri sizning xonangizdan it hidi kelayotganini aytishayapti. Qolaversa... - u bosh muharrirga aytaveraymi deganday qaradi. Bosh muharrir bosh irg'agach, gapida davom etdi.- ... bu xonadan har kuni it tezagi chiqayapti.
  - Bo'lishi mumkin emas, - dedim men. - Men hech qachon bu yerga it olib kirmadim. Bu tuhmat.

This is not registered version of TotalDocConverter

Muharrir bosh qismlarining qulog'iga hamda deb shu qismlar.

- Uyingizda it asrayotganingiz rostmi? - dedi bosh muharrir saldan keyin.

- Rost, asrayapman...- dedim muharrirning yaqinda uyimga borganda itni ko'rib, ostonamdan ham kirmay qaytib ketganini eslab, bor mojaroni shu olifta uyushtirdimikan degan shubhada.

- Unda siz bizga tuhmat qilayapsiz, - dedi bosh muharrir.- Xullas, gap shu. Siz yo itni, yo ishni tanlaysiz. Shu bugun hal qiling. Shusiz ham xodimlar ishxonani it hidi bosib ketgani haqida gap-so'z qilib yurishibdi. Men bu gap yuqoridagilarning qulog'iga yetib borishini istamayman.

U gap tamom deganday o'rnidan turdi. U hamon qo'lidagi ro'molcha bilan burnini ushlab turar, xonadagi hiddan o'ziga kelolmayotgandi. Muharrirning ham burni jiyirilib turardi. Faqat men bu yerda hech qanday g'ayritabiiy hid sezmasdim.

- Xonangizni it hidi bosib ketibdi. Shamollatish kerak, - dedi xo'jalik bo'limidagi kalta kishi. Unga qarab zaharxanda qilib kuldim. Boshliq birontani tepsa, bular borib yanchib o'tadiganlar toifasidan edi.

- Menga qarang, bu tasmadagi it uvillashi bilan sizning it asrashingiz-u mana bu hid o'rtasida bog'liqlik yo'qmi? - so'radi muharrir katta bir sirni ochganday. - Siz bizni it uvillashi bilan mazax qilganingiz yetmaganday endi itni xonangizga ham kiritib olib, ishxonani itxonaga aylantirayapsizmi?

Men indamadim. Ularga gapirish befoydaligini bilardim. Yo'lakda majoraning qanday yakun topishini kuzatib turgan tomoshatalab hamkasblarimning yuzida ham muharrirning gapini tasdiqlashayotgani bilinib turardi. Ertasiga men kimni tanlaganimni aytib, itim bilan boqqa yo'l oldik.

U yerga borib, itim uvillar, ko'zlarimni yumib, men ham uvillar, uvillash bilan tanamni bog'da qoldirgancha, uvillashdagi musibatga qo'shilib, olis-olislariga, o'zim ham anglamagan, go'yo hamma narsaning ibtidosi bo'lib tuyulayotgan olislariga ketib qolardim. Nola meni endi hali yaxlit bo'lgan ruhning jilvalarga qarab boshlab ketardi. Hali hech narsaga ism ham, nom ham berilmagan o'sha yerda men itim bilan yana yuzma-yuz kelardik va shundagina biz bitta vujud ekanimizni sezib qolardim. Endi boqqa kelgan paytlarim ichimdan chiqqan va qaytib kirgan narsa itligiga sira shubha qilmasdim. O'sha daqiqalarda bo'laklarga bo'linib, bir qismim itga aylanib ketganini bilardim. Uvillash meni bo'laklab, bog'ning turli burchaklariga sochib tashlar, keyin yana it qiyofasiga kiritib, sekin bir joyga yig'ar va yana sochib yuborardi. Shunda butun hayotim ana shu sochilish va yig'ilish orasidagi bir lahza ekanini his qilardim. It meni sochib yuborar ekan, men mashaqqatlar bilan turli tomonga adashib - uloqib ketgan o'zimni yig'ib kelardim, u esa xuddi men bilan o'ynashayotganday yana sochib yuborardi. Tarqoq va taravaqaylagan holatda vujudimni tariqday sochib yuborayotgan kuchni ko'rmoqchidek, itga qarab "Kimsan, mendan nima istaysan, sen it, nega ichimga kirib olding?!" deb shivirlardim... Ehtimol, u ham menga shunday deb tikilayotgan va so'rayotgandir? Biz yuzma-yuz turgancha bir-birimizning kimligimizni aniqlashga urinardik. U menga qancha bog'lanib qolsa, men ham unga shuncha bog'lanib borardim. Biz endi bir-biriga tikilib turgan bir vujudday edik. Bir vujud bo'la turib ayro-ayro edik. Menga undan taralayotgan ayriliq azob berardi. Biz qachon birga bo'lsak, ayriliq musibati bosilar, salgina ayrilsak, vujudimni anduh to'ldirardi. Men itga aylanishni, uning yonida bo'lishni, uning qo'tir bosgan tanasini uzun, o'zinikiday, xuddi muhabbat yaloviday osilib turadigan tilim bilan yalashni, uning ham g'aflat yarasi bosgan tanamni yalab halovat bag'ishlashini istardim. Uning yonida xayol lazzatiga g'arq bo'lib, shu lazzatga cho'kib ketishni orzu qilib o'tirardim...

Bosh muharrirga, Rejissyor yordamchisi ...dan Bildirgi

e'lon qilingan tanlov bo'yicha bizning "Bahoviddinning iti" radiopesamiz "Eng yaxshi adabiy rejissyor" mukofotiga sazovor bo'lgani sababli menga rejissyorni zudlik bilan topishni tayinlaganingiz uchun uni qaerdan bo'lsa ham izlab topishga qaror qildim. Dastlab uyiga bordim. Uyni hech kim ochmadi. Qo'shnilarining xabar berishicha, u bir necha haftadan beri uyga kelmayotgan ekan. Shuning uchun nima qilishni bilmay qoldim. Shunda yodimga uning ishdan haydalgach, kunini biz uch oy muqqadam ovoz yozgan ovloq boqqa borib o'tkazayotganini aytgani esimga tushdi. Zudlik bilan o'sha yoqqa yo'l oldim. Qayta ta'mirlash maqsadida anchadan beri bog' ishlamayotgan ekan. Shunday bo'lsa-da, sizning topshirig'ingizni bajarish uchun qarovsiz boqqa kirib, rejissyorni izlashga qorovuldan ruxsat oldim. Ammo bog'da hech kim yo'q edi. Men biron ovloqroq joyda o'tirgandir deb bog'ning xilvat joylarini axtara boshladim. Bir soatlar chamasi izlasam ham odam zotiga duch kelmadim. Hafsalam pir bo'lib, endi qaytmoqchi bo'lganimda devor tuynugidan kirib kelgan, bir-birini quvlab yurgan ikkita itga ko'zim tushdi. Ular goh mendan uzoqlashib bog' bo'ylab yugurishar, goh bir-birini erkalab tishlagancha, yonimdan quvlashib o'tar, xuddi ikki oshiqqa o'xshar, bir-birlarining qo'tirlarini tillari bilan yalashar, bir-birining yaralariga ko'zlarini surtishar, shu darajada baxtiyor ediki, mening yonlarida turganimni ham, izidan ancha yergacha ergashib borganimni ham sezishmadi: ular butun dunyoni unutishgandek, ular uchun faqat ikkalasidan boshqa hech narsaning, bog'ning ham, odamlarning ham, ulkan va shovqinli shaharning ham ahamiyati yo'qdek edi. Ularning bir-biriga muhabbatiga qarab mening ham havasim keldi. Beixtiyor tasmlarga yozilgan uvillash yodimga tushdi. Balki shulardan birining nolasi bizning tasмага tushib, bizni rosa ovora qilgandir deb o'yladim. Eng qizig'i va sizga bu narsalarni batafsil yozayotganimning sabab shuki, itlardan birining bo'ynida men rejissyorning bo'ynida ko'p marta ko'rganim - charm tumor osilib turardi. Bog'da boshqa hech kimni uchratmadim... Rejissyorni topishning iloji bo'lmadi."